ILMIY TADQIQOTLAR VA JAMIYAT MUAMMOLARI
nomli ko'p tarmoqli masofaviy,onlayn respublika konferensiyasi

Sayt havolasi:https://e-conference.uz/index.php/itjm Oktabr,2026

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA KORXONALARNING OPTIMAL TASHKILIY SHAKLLARINI TANLASH TENDENSIYALARI

Ibragimov G'anijon G'ayratovich
https://orcid.org/0009-0008-7188-2609
E-mail: g.ibragimov@tsue.uz
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Innovatsion menejment kafedrasi,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsenti
Abdug'apporova Sevinch
https://orcid.org/0009-0003-0567-4047
E-mail: sabdugapporovagmail.com
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Menejment fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning tashkiliy-huquqiy shakllari tahlil qilinadi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik, MChJ, aksiyadorlik jamiyatlari, kooperativlar va xorijiy ishtirokdagi korxonalar kabi asosiy shakllarning iqtisodiy mohiyati, ularning ustunliklari va cheklovlari, shuningdek, bozor sharoitida samaradorlikka ta'siri chuqur yoritilgan.

Kalit so'zlar: bozor iqtisodiyoti, tashkiliy-huquqiy shakl, korxona, MChJ, aksiyadorlik jamiyati, kooperativ, investitsiya.

Abstract: This thesis analyzes the organizational and legal forms of enterprises under market economy conditions. The economic essence of the main forms, such as individual entrepreneurship, limited liability companies (LLCs), joint-stock companies, cooperatives, and enterprises with foreign participation, their advantages and limitations, as well as their impact on efficiency under market conditions are examined in depth.

Keywords: market economy, organizational and legal form, enterprise, LLC, joint-stock company, cooperative, investment.

Аннотация: В данной тезисной работе анализируются организационно-правовые формы предприятий в условиях рыночной экономики. Подробно рассматриваются экономическая сущность, преимущества и ограничения основных форм, таких как индивидуальное предпринимательство, общества с ограниченной ответственностью (ООО), акционерные общества, кооперативы и предприятия с иностранным участием, а также их влияние на эффективность деятельности в условиях рынка.

Ключевые слова: рыночная экономика, организационно-правовая форма, предприятие, ООО, акционерное общество, кооператив, инвестиции.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning tashkiliy shakllari har bir mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, ular iqtisodiy munosabatlar barqarorligi, raqobatbardoshlik, investitsiyaviy joziba va bandlik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bozor mexanizmlarining erkinlashtirilishi, xususiy sektorning kengayishi, korxonalar mustaqilligining oshishi va xo‘jalik yuritishning turli modellarining shakllanishi korxonalarning tashkiliy-huquqiy shakllarini yanada diversifikatsiya qildi. Ayniqsa, O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar, iqtisodiyotning davlat tomonidan qat’iy tartibga solinadigan tizimdan bozor tamoyillariga asoslangan tizimga o‘tishi jarayonida, korxonalar shakllarining samarali tanlanishi iqtisodiy natijalarga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Korxona shakli uning boshqaruv tizimini, moliyaviy mas’uliyat darajasini, soliq yuki hajmini, risklar taqsimotini, kapitalni shakllantirish imkoniyatlarini va bozor talablariga javob bera olish qobiliyatini belgilab beradi. Shu bois, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning tashkiliy shakllarini ilmiy asoslangan holda o‘rganish, ularning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish, xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish iqtisodiy siyosat va tadbirkorlik rivoji uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar tashkiliy shakllari turli tamoyillarga asoslanadi: mulkchilik shakli, mas’uliyat darajasi, kapitalni shakllantirish usullari, boshqaruv tuzilmasi, risklarning taqsimlanishi va qonunchilikdagi talablarga mosligi. Eng keng tarqalgan shakllar jumlasiga yakka tartibdagi tadbirkorlik, oilaviy korxonalar, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar, aksiyadorlik jamiyatlari, qo‘shma korxonalar va davlat ishtirokidagi korxonalar kiradi. Ularning har biri bozor tizimida o‘ziga xos funksional vazifani bajaradi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining eng oddiy va eng moslashuvchan tashkiliy shakli bo‘lib, kichik hajmdagi kapital bilan faoliyat boshlash imkonini beradi. Uning asosiy ustunliklari boshqaruvning sodda ekanligi, xarajatlarning pastligi, qaror qabul qilish tezligi va bozor talablariga tez moslashish qobiliyatidir. Biroq, cheksiz moliyaviy mas’uliyat, kapital yetishmovchiligi va biznes kengayishining cheklanganligi ushbu shaklning asosiy kamchiliklaridan hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar zamonaviy bozor iqtisodiyotida eng ko‘p tarqalgan shakllardan biri bo‘lib, risklarning qat’iy cheklanishi, ulushdorlar o‘rtasida foyda taqsimoti mexanizmining mavjudligi va boshqaruvning nisbatan qulay tizimi tufayli tadbirkorlik uchun optimal model sifatida qaraladi. Xususan, O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesning asosiy qismi aynan shu shaklda faoliyat yuritmoqda. “2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, faoliyat yuritayotgan 407,9 mingta tijorat tashkilotdan 320,9 mingtasi (78,7 foiz) mas’uliyati cheklangan jamiyatlar hisoblanadi.”[1] Bu shakl tadbirkorlarga shaxsiy mol-mulklarini himoya qilish, investorlar jalb qilish va korxona faoliyatini kengaytirish imkoniyatini beradi. Aksiyadorlik jamiyati — ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti.[2] Bu esa ko‘p miqdordagi kapitalni jalb qilish, yirik loyihalarni amalga oshirish, korporativ boshqaruv tizimlarini joriy etish va ochiq shaffoflik tamoyillariga amal qilish imkoniyatini yaratadi. Bunday korxonalar bozor iqtisodiyotining eng murakkab, lekin samaradorligi yuqori shakli hisoblanadi. Aksiyalar bozori orqali kapitalni jalb qilish imkoniyati mavjud bo‘lsa-da, murakkab boshqaruv, rasmiyatchilikning yuqoriligi va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining kuchliligi bu shaklning o‘ziga xos qiyinchiliklaridir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida

[1] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, 2026-yil 9-yanvarda e’lon qilingan press-reliz, 4-bet.

[2] O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi 223-I-son Qonuni, 2014-yil 6-maydagi O‘RQ-370-son Qonun bilan tasdiqlangan yangi tahrir.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

davlat korxonalari ham alohida o'rin egallaydi. Ular, asosan, strategik tarmoqlar — energetika, transport, geologiya, suv xo'jaligi kabi sohalarda faoliyat yuritadi. Davlat korxonalarining ustunligi — yirik kapital iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash funksiyasidir. Ammo bozor talablariga moslashuvchanlikning pastligi, boshqaruvning sustligi va raqobatning cheklanishi kabi muammolar ularning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, qo'shma korxonalar zamonaviy global iqtisodiyotda xalqaro investitsiyalarni jalb qilish, texnologiya va boshqaruv tajribasini transfer qilishning samarali shakli sifatida e'tirof etiladi. O'zbekistonda ham sanoat, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va avtomobilsozlik sohalarida qo'shma korxonalar faoliyati yanada kengayib bormoqda. Ular milliy iqtisodiyotning texnologik modernizatsiyasi, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim rol o'ynaydi. Korxona shaklini tanlashda quyidagi omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi: soliqlar darajasi, investorlar talablari, risklar hajmi, bozor raqobati, huquqiy cheklovlar, korxonaga yuklatilgan ijtimoiy majburiyatlar, kapital ehtiyoji va boshqaruv modeli. Shuning uchun korxonaning tashkiliy shaklini tanlash faqat huquqiy jarayon emas, balki chuqur iqtisodiy tahlilni talab qiladigan strategik qarordir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning tashkiliy shakllari iqtisodiy faoliyatning samaradorligini belgilovchi asosiy institutsional omil sifatida qaraladi. To'g'ri tanlangan tashkiliy shakl korxonaning rentabelligi, raqobatbardoshligi, investitsion jozibadorligi va boshqaruv sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, korxonalarning huquqiy maqomi va boshqaruv strukturasidagi islohotlar iqtisodiy o'sish, xususiy sektor rivoji, ish o'rinlari ko'payishi va investitsiyaviy muhit yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Shu sababli, kelgusida korxonalarning tashkiliy shakllarini takomillashtirish, boshqaruvni modernizatsiya qilish, raqobatni kuchaytirish va xalqaro korporativ standartlarni joriy etish iqtisodiyotning barqaror rivoji uchun zarur omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi 223-I-son Qonuni, 2014-yil 6-maydagi O'RQ-370-son Qonun bilan tasdiqlangan yangi tahrir.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2026-yil 9-yanvarda e'lon qilingan press-reliz
3. O'zbekiston Respublikasi "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni, 2001-yil 6-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5992-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasida korxonalarni boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil.
5. OECD (2019). Corporate Governance in Emerging Economies. – Paris: OECD Publishing.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.